| <b>Ёдгорова Мухайё Шухратовна, Иминова Наргиза Акрамовна</b>                                                                                              |     |
| The evolution of passenger transport in uzbekistan and its impact on economic growth.....                                                                 | 392 |
| <b>Naubetova Ziyada Niyet kizi</b>                                                                                                                        |     |
| Davlat tibbiyot tashkilotlarida ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish xarajatlarining hisobi.....                            | 397 |
| <b>Kuliboev Azamat Shonazarovich</b>                                                                                                                      |     |
| Jahon sug'urta amaliyotining O'zbekiston sug'urta bozorining rivojlanishiga ta'siri .....                                                                 | 402 |
| <b>Kuvatova Dinara Anvarovna</b>                                                                                                                          |     |
| Milliy iqtisodiyotda xorijiy investitsiyalarning ahamiyati va ta'sir mexanizmlari .....                                                                   | 406 |
| <b>Abdullayev Zoxid Xolxo'jayevich</b>                                                                                                                    |     |
| Xaridorlar bilan hisob-kitoblar auditida moliyaviy tahlil usullarini qo'llash xususiyatlari.....                                                          | 411 |
| <b>Saginbaev Sultanbek Turdibay o'g'li, Sultamuratov Qallibek</b>                                                                                         |     |
| The function and value of commercial banks in fostering capital market growth .....                                                                       | 416 |
| <b>Isakov Janabay Yakipbaevich</b>                                                                                                                        |     |
| Raqamli texnologiyalarning korxonalar risk boshqaruvidagi rolini swot tahlili orqali tadqiq etishning ahamiyati .....                                     | 427 |
| <b>Tojimatov Izzatbek Ikromali o'g'li</b>                                                                                                                 |     |
| Germaniyaning deutsche banki va buyuk britaniyaning barclays banki xizmatlar amaliyoti va uni o'zbekiston bank tizimi faoliyatiga qo'llash yo'llari ..... | 432 |
| <b>Raxmatov Temur Sotiboldiyevich</b>                                                                                                                     |     |
| The state and development trends of business process auditing in joint-stock companies in uzbekistan.....                                                 | 439 |
| <b>Utegenova Sarbinaz Turdimuratovna</b>                                                                                                                  |     |
| Mamlaktimizda amaldagi budjetlararo munosabatlarning tartibi hisobi, hamda uning ahamiyati .....                                                          | 444 |
| <b>Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li, Saydullayeva Zeboxon Shukrilla qizi</b>                                                                                |     |
| Qurilish materiallari sanoatida innovatsion klasterlarni boshqarishni takomillashtirish .....                                                             | 462 |
| <b>Xaydarova E'zoza Shukurullayevna, Li Zin Bo</b>                                                                                                        |     |
| Barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyotning mamlakatimizda so'nggi yillardagi oshib borayotgan ahamiyati .....                                         | 467 |
| <b>Bahodirova Mohigul</b>                                                                                                                                 |     |
| Conceptual framework for boosting the financial and economic performance of investment projects in industrial enterprises.....                            | 472 |
| <b>Sarriev Kahraman Ramatullaevich</b>                                                                                                                    |     |
| Bandlik va ayollar tadbirkorligi .....                                                                                                                    | 477 |
| <b>Ibodullayeva M.S.</b>                                                                                                                                  |     |



|                                                                                                                                                                                                                                  |     |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotini ekonometrik prognozlash.....                                                                                                                                                                | 482 |
| <b>A'zamov Musurmon Axmadovich, Islomov Javohir</b>                                                                                                                                                                              |     |
| Ekspost siyosatini tadbirkorlik faoliyati rivojlanishiga ta'siri.....                                                                                                                                                            | 488 |
| <b>Suvonov Ibrohim Izbosarovich, Abdug'aniyev Murodjon Shavkat o'g'li</b>                                                                                                                                                        |     |
| Aholini ish bilan ta'minlashda qishloq aholisini mehnat salohiyatidan foydalanish.....                                                                                                                                           | 492 |
| <b>Noiba Qodirova Maxmud qizi</b>                                                                                                                                                                                                |     |
| Yashirin iqtisodiyotni kamaytirishda rasmiy bandlik va moliyaviy munosabatlarni rivojlantirish .....                                                                                                                             | 497 |
| <b>Xalimbetov Farxad Bagibekovich, Reyimberdiyev Baburbek Adilbek o'g'li</b>                                                                                                                                                     |     |
| Analysis of touristic potential and capacity of ecotourism sites .....                                                                                                                                                           | 501 |
| <b>Abdurakhmanova Akida Faizulla kizi</b>                                                                                                                                                                                        |     |
| Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalarni moliyalashtirishni takomillashtirish.....                                                                                                                                        | 509 |
| <b>Salohiddinov Jaloliddin</b>                                                                                                                                                                                                   |     |
| Infratuzilma va bozor infratuzilmasi tushunchalarining nazariy tavsifi .....                                                                                                                                                     | 516 |
| <b>G'aniyev Botir Baxtiyorovich</b>                                                                                                                                                                                              |     |
| O'zbekiston va xorijiy davlatlarda aksiyadorlik jamiyatlarining qimmatli qog'ozlar orqali kapital yig'ish strategiyalari .....                                                                                                   | 520 |
| <b>Dilnozaxon Muxitdinova</b>                                                                                                                                                                                                    |     |
| Iqtisodiy inqiroz paytida korxonalarda likvidlilikni boshqarish strategiyalari .....                                                                                                                                             | 527 |
| <b>Abdusalomova Nodira Bakhodirovna, Jabborova Sevinch Xusanovna</b>                                                                                                                                                             |     |
| O'zbekistonda islomiy mikromoliyaviy xizmatlar orqali ish bilan bandlikni oshirish istiqbollari.....                                                                                                                             | 532 |
| <b>Mamatkulov Humoyun Bobir-ugli</b>                                                                                                                                                                                             |     |
| Textile enterprises and changing market conditions: integration of demand analysis, trend forecasting and strategic assortment management .....                                                                                  | 536 |
| <b>Ikramova Nodira Burkxon kizi</b>                                                                                                                                                                                              |     |
| Aksiyadorlik korxonalari boshqaruv tizimida korporativ madaniyatni takomillashtirish .....                                                                                                                                       | 540 |
| <b>Umarkhodjaeva Muyassarhon Ganievna, Omanova Nargiza Rustam qizi</b>                                                                                                                                                           |     |
| Moliyaviy faoliyat natijalari hisobi va auditini takomillashtirish.....                                                                                                                                                          | 548 |
| <b>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Abduxoliqov Isomiddin Ikrom o'g'li</b>                                                                                                                                                        |     |
| Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiyotning real sektori korxonalariga kreditlar bo'yicha foiz stavkalariga ta'sir ko'rsatishda markaziy banklarning qayta moliyalash stavkalarining rolini tahlil qilish ..... | 553 |
| <b>Jabbarov Eliboy, Abdullayeva Charos Abdullo qizi</b>                                                                                                                                                                          |     |
| O'zbekistonda qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashda innovatsiyalarning roli va iqtisodiy samaradorligi .....                                                                                                           | 558 |
| <b>Raximov Baxromjon Ibroximovich, Solohiddinov Nuriddin Sirojiddin o'g'li</b>                                                                                                                                                   |     |
| Sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish orqali chiqindilarni boshqarish muammosini bartaraf etish yo'llari.....                                                                                                                   | 563 |
| <b>Narzullayev Elmurod Shuxrat o'g'li, Hamrokulov Ulug'bek Abdurahmatovich</b>                                                                                                                                                   |     |



UO'K: 33.330.15

# SIRKULAR IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH ORQALI CHIQINDILARNI BOSHQARISH MUAMMOSINI BARTARAF ETISH YO'LLARI

Narzullayev Elmurod Shuxrat o'g'li

University of Business and Science

"Moliya" kafedrası dotsent v.b. (PhD)

OCID: 0009-0008-7679-1976

Hamrokulov Ulug'bek Abdurahmatovich

University of Business and Science

"Moliya" kafedrası o'qituvchisi (PhD)

OCID: 0009-0009-5369-9058

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada sirkulyar iqtisodiyot nima ekanligi, bu turdagi iqtisodiyotni rivojlantirish orqali chiqindilarni boshqarish muammosini bartaraf etish yo'llari, chiqindilar bilan bog'liq muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha ilg'or horij tajribalari haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** barqaror rivojlanish, sirkulyar iqtisodiyot, ekologik tadbirkorlik, chiqindisiz ishlab chiqarish, chiqindilarni boshqarish.

**Abstract:** This article discusses what a circular economy is, ways to solve the problem of waste management through the development of this type of economy, problems related to waste and advanced foreign experiences in solving them.

**Key words:** sustainable development, circular economy, ecological entrepreneurship, waste-free production, waste management.

**Аннотация:** В статье рассматривается, что такое циркулярная экономика, пути решения проблемы обращения с отходами посредством развития данного типа экономики, проблемы, связанные с отходами и передовой зарубежный опыт их решения.

**Ключевые слова:** устойчивое развитие, циркулярная экономика, экологическое предпринимательство, безотходное производство, управление отходами.

## KIRISH

Jahonda atrof-muhitni muhofaza qilish va kelajak avlodga xavfsiz yashash muhitini qoldirish bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Yer yuzida ekologik vaziyat kundan-kunga global darajada yomonlashib bormoqda. Butun dunyoda chiqindilarning hosil bo'lish sur'ati yil sayin oshib bormoqda. 2022-yilda jahonda jami 2,01 milliard tonna qattiq chiqindi hosil bo'lgan. Uning atiga 20 foizga yaqini qayta ishlangan. 2050-yilga borganda, aholining tez sur'atlar bilan o'sishi va urbanizatsiya tufayli yillik chiqindilarning vujudga kelishi 2022-yildagiga qaraganda 70 foizga oshib, 3,42 milliard tonnaga yetishi kutilmoqda[1]. Ushbu sohadagi muammolar xorijiy mamlakatlar tajribasida zamonaviy, innovatsion va ekologik toza texnologiyalar hamda xizmatlarni joriy etish asosida bartaraf etib kelinmoqda. Ular orasida eng samarali choralardan biri atrof-muhitni muhofaza qilish xizmatlari sifatini oshirish, maishiy chiqindilarni to'plash va hududlardan olib chiqish sohasidagi tadbirkorlik subyektlarini faol jalb qilish hisoblanadi. Dunyoning eng rivojlangan AQSh, Yaponiya, Kanada, Janubiy Koreya, Italiya, Germaniya, Shvetsiya, Shvetsariya kabi mamlakatlarida sirkulyar iqtisodiyotni maqsadli va tizimli rivojlantirish, ularni har tomonlama faol qo'llab-quvvatlash hamda sohadagi boshqaruv tizimini doimiy takomillashtirib borish mamlakatlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Jahon tajribasida chiqindilarni qayta ishlash bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlarining innovatsion boshqarish va rivojlantirishga yo'naltirilgan samarali mexanizmlarini tizimli ravishda qo'llash va takomillashtirish bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda[6]. Atrof-muhitni muhofaza qilish va chiqindilarni boshqarishga qaratilgan zamonaviy boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqish va qo'llash, ushbu yo'nalishdagi sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish va ekotadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash, faol rag'batlantirish va chiqindilarni qayta ishlash tizimini takomillashtirish bu boradagi ilmiy tadqiqot ishlarining ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi. Bugungi kunda atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan tadbirkorlik subyektlarining faoliyat olib boradigan innovatsion



yo'nalishlarini va o'ziga xos uslubiy asoslarini o'rganish, ular faoliyatining samaradorligini baholash, modellarini hamda boshqarish va rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish asosiy ilmiy tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI.

Sirkulyar iqtisodiyot "yopiq sikl"ga egaligi bois sikllik iqtisodiyot ham deyiladi. U ishlab chiqarish va iste'mol modeli hisoblanib, an'anaviy, ya'ni "chiziqli" iqtisodiyotning muqobili sifatida maydonga chiqadi. O'tgan asrning 70-yillaridan e'tiboran sirkulyar iqtisodiyot tamoyillariga e'tibor qaratila boshlandi va 80-yillarda u jadal rivojlandi. Sanoati taraqqiy etgan mamlakatlarda bu borada sezilarli natijalarga erishilgan. Masalan, Yaponiyaning mashhur Kamikasu qishlog'ida chiqindi miqdori nolga tushirilgan, ular 43 yo'nalishda saralanib, keyin ishlab chiqarishga yo'naltiriladi[2].

Sirkulyar iqtisodiyot tushunchasi XX asrning 70-yillaridan boshlab rivojlangan mamlakatlarda, xususan Germaniya va G'arbiy Yevropa mamlakatlarida rivojlana boshladi. U ishlab chiqarish, tarqatish, almashish, qayta foydalanish va qayta ishlashni o'z ichiga oladigan mahsulotning butun hayotiy siklini aylanishi imkonini beradigan model hisoblanadi. "Sirkulyar iqtisodiyot" tushunchasi birinchi marta 1988-yilda amerikalik iqtisodchi olim Allan Nis tomonidan qo'llanilgan. O'sha davrdan boshlab sirkulyar iqtisodiyot materiallarni qayta ishlash, chiqindilarni kamaytirish, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash va barqaror ish o'rinlarini yaratish kabi muhim sohalarni qamrab olgan holda biznes olamida eng ko'p muhokama qilinadigan mavzulardan biriga aylandi[4]. Jahon Iqtisodiy Forumi tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga asosan sirkulyar biznes modelini amalga oshirish 4,5 trillion AQSh dollari miqdoridagi iqtisodiy imkoniyatlarni oshishiga sabab boladi. Sirkulyar iqtisodiyot tushunchasi rentabellik ko'rsatkichiga sinonimdir. Xalqaro Mehnat Tashkilotining hisob-kitoblariga ko'ra, sirkulyar iqtisodiyotga o'tish dunyo miqyosida qariyb 6 millionga yaqin ish o'zni yaratish imkonini beradi, chunki kompaniyalar ko'proq foyda olishning an'anaviy "qazib olish, ishlab chiqarish, foydalanish va tashlash" usulidan voz kechishga intiladilar[4].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qiyosiy va statistik usullar, tizimli tahlil va sintez usullari qo'llaniladi. Tadqiqot uchun axborot bazasi rasmiy statistik ma'lumotlar va xorijiy manbalardan foydanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda respublikamizda atrof-muhitni muhofaza qilishni ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash, shuningdek, hududlarning sanitariya va ekologik holatini yaxshilash sohasida izchil siyosat amalga oshirilmoqda[5]. Bu muammolarni bartaraf etish uchun mamlakat miqyosida keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Bulandan biri, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-aprelda «2019–2028-yillar davrida O'zbekiston Respublikasida qattiq maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi qarori qabul qilinganligidir.

Davlat darajasida harakatlarning yetarlicha muvofiqlashtirilmagani, qayta ishlash va utilizatsiya qilishning zamonaviy texnologiyalari yo'qligi, saralash va qayta ishlash zaruratidan aholining xabardorligi pastligi tufayli O'zbekistonda chiqindi muammosi dolzarbligicha qolmoqda. Ekologik vaziyat tezkor choralar ko'rish va ahvol yanada yomonlashuvining oldini olishga qaratilgan uzoq muddatli strategiyalarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda[2].

Farmonda Sanitar tozalash korxonalari faoliyatini kuzatish va baholash tizimini yaratishga alohida e'tibor qaratilgan. Kelgusi yil 1-martdan boshlab chiqindilarni yig'ish, tashish va qayta ishlash bilan shug'ullanuvchi korxonalarning asosiy samaradorlik ko'rsatkichlarini (KRI) baholash mezonlarini joriy etish rejalashtirilmoqda. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad, mazkur kompaniyalar faoliyatining ochiq va shaffofligini oshirish va ishini doimiy ravishda takomillashtirishdan iboratdir.

Bir so'z bilan aytganda, yurtimizda chiqindilarni boshqarish tizimini mintaqaviy darajada takomillashtirishning aniq chora-tadbirlari belgilandi.

2026-yil 1-yanvardan e'tiboran bir qator innovatsion yechimlarni joriy etish rejalashtirilmoqda. Jumladan, chiqindilar bilan ishlash xizmatlari bo'yicha tenderlarni onlayn kuzatish va sanitar tozalash korxonalari faoliyatini nazorat qilish maqsadida chiqindi yig'ish punktlariga videokameralar o'rnatiladi. Bu kabi choralar tizimdagi shaffoflikni, shu bilan birga, jamoatchilik va tadbirkorlik doiralari bilan yaqin hamkorlikni ta'minlaydi. O'zbekistonda Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligining tashkil etilishi jiddiy ekologik muammolarni hal qilish yo'lidagi muhim institutsional qadamdir. Sirkulyar iqtisodiyot atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirishga, chiqindi poligonlari hajmini qisqartirishga hamda resurslarni qayta ishlash va "yashil" texnologiyalarni rivojlantirish orqali iqtisodiy o'sishning yangi imkoniyatlarini yaratishga xizmat qiladi[2].



Mamlakatdagi asosiy chiqindi manbalarini shartli ravishda to'rt toifaga ajratish mumkin – sanoat, qishloq xo'jaligi, maishiy va tijorat chiqindilari[2].

a) Sanoat chiqindilari zaharli moddalar, ishlab chiqarish chiqindilari va kimyoviy moddalar, metallar hamda plastmassalar kabi qayta ishlanmaydigan materiallardan iborat. Mamlakatimizda sanoat chiqindilari hajmi yil sayin ortib bormoqda, bu esa ularni xavfsiz utilizatsiya qilish va qayta ishlash infratuzilmasini yaratishni taqozo etadi.

b) Qishloq xo'jaligi O'zbekiston iqtisodiyotining muhim tarmog'i bo'lib, bu sohada o'simlik qoldiqlari, o'g'itlar va oqova suvlar kabi organik chiqindilarning katta hajmi to'planmoqda. Ushbu chiqindilar kompost shaklida ikkilamchi qayta ishlash uchun foydali bo'lishi mumkin, biroq ular noto'g'ri utilizatsiya qilinsa, tuproq va suv havzalarining ifloslanishiga olib keladi.

c) Maishiy chiqindilarning asosiy qismi organik chiqindilar, plastik, shisha, metall va qog'ozdan iborat. Shaharlar aholisining demografik o'sishi va iste'mol darajasining oshishi sababli bu turdagi chiqindilar hajmi sezilarli darajada ko'paygani sanitariya tozalash va utilizatsiya tizimida jiddiy muammolarni yuzaga keltirmoqda.

d) Tijorat chiqindilari – bu do'konlar, restoranlar, bozorlar, ofislar, mehmonxonalar, bosmaxonalar, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ustaxonalari faoliyati natijasida hosil bo'ladigan qattiq va yarim qattiq chiqindilardan iborat.

Bugungi kunda O'zbekistonda chiqindilarni utilizatsiya qilish tizimi an'anaviy usulga asoslangan bo'lib, ular asosan maxsus poligonlarga ko'miladi. Qayta ishlashni joriy etish bo'yicha ba'zi harakatlar mavjud bo'lsa-da, bu chora-tadbirlar hali yetarli darajada rivojlanmagan, tarqoq holatda. Maishiy va sanoat chiqindilarning oz qismi qayta ishlanadi. Asosan metall, qog'oz va plastik kabi materiallar ikkilamchi qayta ishlashga yo'naltiriladi. Chiqindilarni alohida yig'ish tizimining yo'qligi vaziyatni yanada murakkablashtiradi. Natijada aholi ham, korxonalar ham qayta ishlash jarayoniga kam jalb qilinadi. Chiqindilarni yoqish inshootlarining yo'qligi bois O'zbekistonda bu usul deyarli qo'llanilmaydi. Biroq agar kam chiqindili zamonaviy texnologiyalardan foydalanilsa, mazkur usulni joriy etish orqali to'lib-toshgan poligonlar muammosini qisman hal qilish mumkin[2].

Chiqindilarni qayta ishlash infratuzilmasi ortib borayotgan yukni ko'tara olmayotgan bir sharoitda atrof-muhit, aholi salomatligi va mamlakatning iqtisodiy barqarorligiga jiddiy xavf tug'ilmoqda. Shu bois, sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini O'zbekistonda ham joriy etish nafaqat maqsadga muvofiq, balki chiqindilarni barqaror boshqarishni ta'minlashning muhim shartidir. Sirkulyar iqtisodiyot ishlab chiqarish va iste'mol qilish modeli bo'lib, u mavjud materiallar va mahsulotlarni imkon qadar uzoq vaqt davomida taqsimlash, ijaraga berish, qayta foydalanish, ta'mirlash, qayta tiklash va qayta ishlashni o'z ichiga oladi. Bunda chiqindilar minimal darajada kamaytiriladi. Mahsulot muddati tugagach, qayta ishlash yo'li bilan chiqindi materiallari iloji boricha iqtisod doirasida saqlanadi. Ulardan qayta-qayta samarali foydalanish mumkin[2].

Sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha Osiyo va Yevropa davlatlarining tajribasi ekologik barqarorlikka erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, Niderlandiyada chiqindilarni qayta ishlash va qayta foydalanish tizimlari samaradorligi plastik chiqindilarni qayta ishlash va kompostlash orqali 80% ga yetkazilgan[1]. Xitoyda sanoat klasterlari va sirkulyar tizimlar texnologik integratsiya asosida ishlatilib, qayta ishlashda innovatsion yondashuvlar ishlab chiqilgan. Shvetsiyada energetik sirkulyar iqtisodiyotning biomassa va qattiq yoqilg'ilarni qayta ishlash amaliyoti orqali energiya ishlab chiqarishda 90% qayta ishlash darajasiga erishilgan. Singapurda esa suv resurslarini qayta tiklash va chiqindilarni utilizatsiya qilish tizimlari suv iste'molini 30% ga qisqartirish imkonini bergan [3].

O'zbekiston uchun ushbu tajribalar qimmatli ahamiyatga ega bo'lib, chiqindilarni qayta ishlash tizimlarini joriy qilish va biomassa energiyasidan foydalanish orqali resurs tejamlorligi va ekologik xavfsizlikni ta'minlash mumkin. O'zbekistonda bioiqtisodiyot va sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini rivojlantirishda yuqorida keltirilgan davlatlarning tajribasidan foydalanish muhimdir. Ayniqsa, Yaponiyaning texnologik innovatsiyalari va Germaniyaning yashil iqtisodiyot yondashuvlari mahalliy sharoitga moslashuvi mumkin. Bundan tashqari, Daniya va Shvetsiyaning chiqindilarni qayta ishlash borasidagi tajribasi ham qimmatli o'rnakdir.

#### 1-jadval Sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish: Osiyo va Yevropa davlatlari tajribasi[3]

| Mamlakat     | Asosiy tamoyillar                                | Amaliyotlar                                           | Natijalar va samaradorlik                         |
|--------------|--------------------------------------------------|-------------------------------------------------------|---------------------------------------------------|
| Niderlandiya | Chiqindilarni qayta ishlash va qayta foydalanish | Plastik chiqindilarni qayta ishlash va kompostlash    | Chiqindilarni qayta ishlash darajasi 80% ga yetdi |
| Xitoy        | Sanoat klasterlari va sirkulyar tizimlar         | Texnologik integratsiya va chiqindilardan foydalanish | Qayta ishlashda innovatsion texnologiyalar        |
| Shvetsiya    | Energetik sirkulyar iqtisodiyot                  | Biomassa va qattiq yoqilg'ilarni qayta ishlash        | Energiya ishlab chiqarishda 90% qayta ishlash     |



Ushbu yondashuvlarni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish orqali ekologik muammolarni kamaytirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish mumkin. Xorij tajribasidan foydalanib, O'zbekistonda bioiqtisodiyot va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ushbu yo'nalishlar mamlakatimizda ekologik barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun zarur.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Bizning fikrimizcha, sirkulyar iqtisodiyotning rivojlanishi ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik muammolarni hal qilishda, ijtimoiy birdamlikni oshirishda, mahalliy ijtimoiy kapitalni to'g'ri yo'naltirishda, demokratik ishtirokni qo'llab-quvvatlashda va sifatli xizmatlar ko'rsatishda muhim rol o'ynaydi. Ekologik korxonalarni qo'llab-quvvatlovchi davlat siyosati hukumatlarga ish bilan ta'minlash va boshqa muammolarni yanada samarali va tezroq hal qilish imkonini beradi, shu bilan birga davlat pullarini to'g'ri yo'naltirilishini ta'minlaydi.

Respublika miqyosida sirkulyar iqtisodiyot elementlari uchrasada, ammo jamiyat uchun mazkur termin nisbatan yot kategoriya hisoblanadi, qolaversa, bizda hali ushbu munosabatning amaliyotga kiritilishi, tatbiq etilishi, xalqning mazkur tushunchaning mavjud bo'lishini qabul qila olishi uchun asosiy katalizator ham bo'lishi lozim. Bu kamchilikni bartaraf etish uchun atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari va ijtimoiy tadbirkorlar to'g'risida aholi o'rtasida tushuntirishlar olib borish hamda yo'riqnomalar va uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ilg'or xorij tajribalaridan ijtimoiy tadbirkorlik sohasini rivojlantirishda davlat bosh islohotchi vazifasini o'tashini hamda sohani rivojlantirish va boshqarishda uchun alohida tashkilot tashkil etilganligini ko'rish mumkin (masalan, Koreya Ijtimoiy tadbirkorlik Agentligi (KoSEA), Xitoyda Energiya Tejash va Ifloslanishni Kamaytirish Milliy yetakchi qo'mitasi).

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. D.Sultonova "Sirkulyar iqtisodiyot ekologik muammolarni hal qiladimi?" O'zTFQM axboroti, 2022
2. Nurislom To'xliyev "Sirkulyar va yashil iqtisodiyot" "Jadid" gazetasining 2024-yil 22-noyabrdagi 48-soni
3. F.K.Saidova "O'zbekistonda bioiqtisodiyot va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati"// "Raqamli iqtisodiyot" ilmiy-elektron jurnali | 10-son b.1021-1029, 2024
4. S.N. Xashimova "Sirkulyar iqtisodiyot barqaror rivojlanish mexanizmi sifatida"// Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali, 2024-yil, dekabr. № 12-son.
5. E.Narzullayev "Ekologik ijtimoiy tadbirkorlik sohasining paydo bo'lishi va O'zbekistonda rivojlantirish holati tahlili"// Agroilm jurnali MAXSUS SON 2, 2024, b.154-157
6. Maxmudov N.M. Narzullayev E.Sh. Atrof-muhitni muhofaza qilishga asoslangan ijtimoiy tadbirkorlikning tarkibiy tuzilishi va uning o'ziga xos hususiyatlari // Journal of Innovations in Social Sciences Volume 1 | Issue 4 (Oct 2021) B-58-65
7. <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/sirkulyar-iqtisodiyotning-afzalliklari>
8. <https://uz24.uz/uz/articles/green-energy-11-3>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 6**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---